



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 25-iyul

VII-12-81-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoqilg‘i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish va behuda sarflanishning oldini olish hamda energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-133-sonli qarori ijrosi yuzasidan Kattaqo‘rg‘on tuman hokimining qurilish, to‘sqliarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari M.Rasulovning hisoboti haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoqilg‘i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish va behuda sarflanishning oldini olish hamda energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-133-sonli qarori ijrosi yuzasidan Kattaqo‘rg‘on tuman hokimining qurilish, to‘sqliarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari M.Rasulovning hisobotini tinglab, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24- moddalariga asosan, Xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘n ikkinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoqilg‘i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish va behuda sarflanishning oldini olish hamda energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-133-sonli qarori ijrosi yuzasidan Kattaqo‘rg‘on tuman hokimining qurilish, to‘sqliarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari M.Rasulovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari (M.Rasulov), tuman elektr ta’minoti korxonasi(J.Alimov) va tegishli tashkilot rahbarlari bilan birgalikda:

- elektr energetikasi tarmog‘ini jadal rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta’minalash hamda tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarini ko‘rish;

- aholining elektr energiyasi bilan bog‘liq muammolarini o‘rganib, tuman darajasida yechiladigan masalalarni o‘z vaqtida bartaraf etish choralarini ko‘rish;

- elektr energiyasi tizimini barqaror ishlashini ta’minalash borasida belgilangan chora-tadbirlarni qat’iy reja asosida amalga oshirish;

- tumanda yaroqsiz holga kelgan simyog‘ochlarni hisobini aniqlash va yangisiga almashtirish;

- tumanda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish ishlarini jadallashtirish;

- tizimda mavjud elektr energiyasini talon-taroj qilish holatlarini oldini olish maqsadida, chora-tadbirlar belgilash vazifalari yuklansin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari M.Rasulov, tuman elektr ta’minoti korxonasi (J.Alimov), “Samarqandtumangaz” gaz ta’minoti bo‘limi (L.Nazarov) hamda tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

- har oy yakunida tuman hududida hamda sohalarda elektr energiyasi va tabiiy gazni iqtisod qilish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar bajarilishi holatini shaxsan o‘rganib borish hamda bu borada mas’uliyatsizlikka yo‘l qo‘ygan rahbarlarga nisbatan choralar ko‘rish;

- tumanda elektr energiyasi va tabiiy gazni iqtisod qilish bo‘yicha har oylik maqsadli reja ko‘rsatkichlarining o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishini hamda energiya resurslarini yetkazib berishdagi yo‘qotishlarni kamaytirishni qat’iy ta’minlash choralarini ko‘rsin;

- har chorakda tumandagi muqobil energiya manbalaridan foydalanishni joriy etish va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari M.Rasulov binolarni barpo etishda energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish, ayniqsa, yangi qurilayotgan ko‘p qavatli uylarning issiqlikni saqlovchi materiallar bilan qoplanishini ta’minlash hamda bu borada qat’iy nazorat olib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, communal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari M.Rasulov hamda nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Xudoyberdiyev) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH